

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ  
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ  
БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ  
ПЕДАГОГИКА КАФЕДРАСИ  
ПЕШКУ ТУМАНИ 2-СОН КАСБ-ХУНАР МАКТАБИ**

**ПРОФЕССИОНАЛ ТАЪЛИМ МУАССАСАЛАРИДА  
ДУАЛ ТАЪЛИМНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ  
ЗАМОНАВИЙ ТЕНДЕНЦИЯЛАРИ ВА РИВОЖЛАНИШ  
ОМИЛЛАРИ**

Республика илмий-амалий конференция материаллари



**Бухоро-2021**

buning uchun ma`rifat ishlariga hammaning manfaatlarini birga qo`yish kerak", degan barcha davrlar uchun dolzarb fikrni ilgari surishdi va anashuni hisobga olib maktablar tashkil etishdi.

Turkiston jadidlari tomonidan amalga oshirilgan bu kabi ta`limiy islohotlar, ayniqsa, shu masalaga yo`naltirilganligi bilan Ismoil Ga`spirali tomonidan ilgari surilgan Qrim jadidchiligidan qaysidir ma`noda farq qilar edi. Yangi usuldagi maktablar Qo`qon, Toshkent, Samarqand, Buxoro, Xiva kabi tarixiy shaharlarda, ularga tutash bo`lgan shahr va qishloqlarda tashkil etilganligining ham tarixiy ahamiyati beqiyosdir. Sababi, bu shaharlar azal-azaldan ilm-ma`rifat maskani sifatida e`tirof etiladi. Shu asnoda, ko`hna tarix charxpalagida toblangan xalqimizning bunday turdagi yangi usul maktablariga ehtiyojmandligi hech zamonda, hech qaysi bir tadqiqotchini ajablantirmagan.

Xulosa o`rnida shuni alohida e`tirof etish mumkinki, Jadidlar tomonidan Yangi usul maktablarining tashkil etilishi tom ma`noda millatning avvalo ma`naviy hayotini yuksaltirish asnosida kelgusida zamonaviy jamiyatda uning xalqaro darajadagi mavqeini yuksaklarga ko`tarishga qaratilgan edi. Ta`lim sohasidagi bu kabi islohotlar Chor hukumati matasaddilari va mahalliy diniy mutaasiblar tomonidan qoralanib ma`lum ma`noda ta`qib ostiga olingan bo`lsada, ular bu harakatlardan oz bo`lsada chekinishmadi, harakatdan to`xtashmadi. O`sib kelayotgan yosh iste`dodli yoshlarga Turkiston o`lkasining rivojida kelgusidagi harakatlantiruvchi asosiy kuchi sifatida qaralib, ularning bir qanchasi Turkiya va Olmoniya kabi xorijiy mamlakatlarga o`qishga yuborilganligi bir qator tarixiy manbalarda qayd etilgan. Zero, Abdulla Avloniy g`oyat o`rinli ta`kidlaganidek: "Tarbiya biz uchun yo hayot, yo mamot, yo najot, yo saodat, yo falokat masalasidir".

## **BUXORO AMIRLIGIDA ROSSIYA SANOAT KORXONALARI**

*Qudratov SH.Yo. BuxDU Buxoro tarixi kafredrasi katta o`qituvchisi*

XX asr boshlariga kelib Rossiyaning sanoat ishbilarmon doiralari Buxoro amirligida sanoatning turli tarmoqlarini rivojlanishida muhim oringa ega bo`lgan. Mustamlakachilarning bu sohadagi faoliyati natijasida amirlik markazida va shaharlarida sanoat korxonalar vujudga keldi.

1867-yil Turkiston general-gubernatorligi tashkil etilgandan keyin rus va chet el sanoatlari uchun qulay sharoit yaratib berishga harakat qilindi. O`lkaga kelgan savdogarlar sanoatchi tadbirkorlar va ish yurutuvchilar har jihatdan qo`llab-quvvatlandi. Ko`rilgan tadbirlar natijasida Buxoro amirligida Yevropa tipidagi dastlabki korxonalar qurildi.

XIX asr oxirigacha Buxoroda texnik jihatdan mutaxasislarning yo`qligi sababli ishlab chiqarish past darajada bo`lgan. Zavod va fabrikalar bo`lmagan. Lekin amirlik Rossiya mustamlakasiga aylangach 1905-yilgacha amirlikda 9 ta paxta tozalash

zavodi qurildi. Ushbu zavodlar yiliga 2 mln 500 ming pud paxtani qayta ishlar edi. Birinchi jahon urushi arafasida amirlik hududida 50 dan ortiq korxonalar mavjud bo'lib shundan 26 tasini paxta tozalash zavodlari tashkil qilgan<sup>54</sup>. Ularning asosiy qismi amirlikdagi rus shaharlariga joylashtirilgan. Rus sanoatchilari amirlikning rus manzilgohlari aholi zich yashaydigan hududlari va temiryo'l bekatlari yaqinida o'z zavod va fabrikalarini joylashtirdilar. Bu sohada xom-ashyo (paxta, jun va qorako'l terilari) manbalari albatta inobatga olingan.

Amirlik hududiga rus kapitalining kirib kelishi bilan yirik mahalliy sanoatchi guruhlar ham paydo bo'la boshladi. Bunday yirik boylar Ubaydulla Xo'ja, Mirza Muhiddin Mansurov, Musatafoxo'ja, G'afurxo'ja Mirjonov va boshqalardan iborat bo'lgan.

Buxoro amirligida temiryo'llarning qurilishi natijasida paxtani Rossiyaga tashib ketish keskin kuchaydi. Paxta zavodalarining quvvati oshib borishi natijasida ko'plab chigit to'plana boshladi. Ilgari qadrsiz bo'lgan hatto o'tin sifatida foydalanilgan chigitdan 1890-yildan boshlab sanoat usulida yog' olishga kirishildi. O'lkada dastlabki yog' zavodi Yangi Buxoro (Kogon)da K.Drejeveskiy tomonidan qurilgan<sup>55</sup>. Biroq chigit to'plash imkoniyati cheklanganligi ayniqsa mahalliy aholining g'ayridinlar tayyorlagan yog'ni iste'mol qilishni xohlamasliklari tufayli zavod to'xtab qoldi.

Yangi Buxoro (Kogon) shahrining jug'rofiy va strategik jihatdan qulay yerda joylashganligi, bu yerdan temiryo'lning o'tganligi uning iqtisodiy taraqqiyotiga samarali ta'sir ko'rsatdi. Tadbirkorlar va savdogarlar bu shahar hududidan yerlar sotib oldilar. 1888-yildan boshlab rus savdogarlari, mahalliy savdo vakillari va tadbirkorlari Yangi Buxoro shahridan yer so'rab amirga murojaat qilgan. Bu davrda har bir kishiga sanoat korxonasi qurish uchun 750 sajendan 1500 kv sajaengacha yer berish ko'zda tutilgan edi. Bir kv metr yerning narxi 50 tiyin (2 tanga) qilib belgilangan.

XX asr boshlariga kelib shaharga amirlikda savdo aloqalarini rivojlanishi birinchi o'rinda turgan. Amirlikning Hindiston, Eron, Afg'oniston, Rossiya bilan olib boriladigan tashqi savdosida yetakchi rol o'yanagan. 1903-yilga kelib Yangi Buxoroda tadbirkor Baxtadzening vino zavodi, Dyurshmidtning ichak tozalash zavodlari, tadbirkor Litvanning tamaki fabrikasi, Yepifanovning gugurt fabrikasi va mineral suv ishlab chiqaruvchi zavodlari faoliyat ko'rsatgan<sup>56</sup>.

---

<sup>54</sup> Rashidov U. XX asr boshlarida Buxoro amirligidagi siyosiy va iqtisodiy jarayonlar. Buxara 2011. – B.19.

<sup>55</sup> Amonova F. Buxoro-Rossiya iqtisodiy aloqalari tarixiga bir nazar. (XIX asr oxiri-XX asrning birinchi choragi) Toshkent – 2011. – B. 24.

<sup>56</sup> Ostonov O. XIX asr oxiri XX asr boshlarida Yangi Buxoro (Kogon) shahrida savdo va tadbirkorlik ishlari // O'zbekistonda urbanizatsion jarayonlar: Tarix va hozirgi zamon. Xalqaro ilmiy amaliy anjuman materiallari. 1-qism. T.: 2007, - B. 249.

1910-yilda Yangi Buxoroda 8ta paxta tozalash zavodi, 1914-yilda 1ta yog' ishlab chiqaruvchi zavodi borligi ta'kidlanadi<sup>57</sup>.

Amirlikda shu bilan birga ip yigirish, charm mahsulotlari ishlab chiqarish shoyi gazlamalar ishlab chiqariladigan korxonalar ham faoliyat ko'rsatgan.

Xulosa qilib shuni aytish lozimki faoliyat ko'satgan mazkur zavod va fabrikalarning deyarli barchasi rus kapilatalistlari uchun xizmat qilib asosan xom-ashyoga dastlabki ishlov berish bilan shug'ullangan. Uni tayyor mahsulotga aylantirishni esa, Rossiyaning markaziy shaharlarida amalgam oshirilgan. Lekin shunday bo'lsada amirlik iqtisodiyotiga rus kapitali va sanoatining kirib kelishi Buxoroning Orta Osiyodagi yirik savdo markaziga aylanishini ta'minlagan.

## **Республикамиз музейларининг тараққиётида замонавий инновациялар**

**Бду Тарих ва маданий мерос факультети  
Бухоро тарихи кафедраси катта  
ўқитувчиси Б.Болтаев**

Ўзбекистонда музейлар жамиятнинг маънавий савиясини оширишга хизмат қилувчи ижтимоий-маданий институт сифатида алоҳида ўрин тутди. Зеро, ёш авлодни Ватанга муҳаббат, миллий ва умуминсоний кадриятларга ҳурмат руҳида тарбиялаш, уларнинг онгига халқимизнинг бой миллий маданий мероси ва тарихий ўтмишига ҳурмат ҳиссини сингдиришда музейларнинг роли ниҳоятда катта. Шу жиҳатдан “музейлар инфратузилмасини халқаро стандартларга мувофиқ такомиллаштириш орқали кўрсатиладиган хизматларнинг интерактивлигини ошириш, музейларнинг фаолиятига инновацион ахборот технологияларини кенг жорий этиш ва музей экспонатларининг рақамли шакллари яратиш орқали музей экспонатларини кўриш имконини берадиган инфратузилмани яратиш”<sup>58</sup> бугунги куннинг долзарб вазифаларидан бири ҳисобланади. Ушбу вазифалар ўз навбатида илмий-назарий

<sup>57</sup> Кнопка С.Р. Туркистанский край. Т.: 1920. –С. 19.

<sup>58</sup> Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 26 августдаги ПҚ-3920-сонли “Ўзбекистон Республикасида маданият ва санъат соҳасини инновацион ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори // Lex.uz.

<b>АЗИМОВА Н.Э., НАСИМОВА З.И.</b> Дуал таълим тамойилларига асосланган профессионал таълим дастурларини амалга оширишнинг ўзига хос хусусиятлари.	<b>357</b>
<b>ЖУРАЕВ Б.Т.</b> Педагогик мулоқот касбий компетентликнинг муҳим омили	<b>360</b>
<b>САИДОВ О.Қ.</b> Фармация йўналишида дуал таълимни ташкил этиш	<b>362</b>
<b>МАХМУДОВА N.</b> Ta'lim jarayonida didaktik vositalardan foydalanishning qulay shart-sharoitlari	<b>365</b>
<b>МАЇДИОВ J.J., РАҲАБОВА G.E .</b> O`rta osiyo jadidlarining yangi usul maktablari faoliyatidan lavhalar	<b>368</b>
<b>QUDRATOV Sh.Yo.</b> Buxoro amirligida Rossiya sanoat korxonalari	<b>375</b>
<b>БОЛТАЕВ Б.Б.</b> Республикамиз музейларининг тараққиётида замонавий инновациялар	<b>378</b>
<b>ЭРҒАШЕВА М.Р.</b> Туркистон маърифатпарварларининг қарашларида баркамол ёшлар таълим тарбияси	<b>380</b>
<b>ЖУМАЕВА М.</b> Юртимиздаги қадимги оловли уйлар	<b>384</b>
<b>БАХТИЁРОВ Б.</b> Ёшларни Ватанга муҳаббат руҳида тарбиялашда музейларнинг ўрни ва аҳамияти.	<b>387</b>